

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil 163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**GIYASOVA UMIDA ERKINOVNA**

**MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA TINGLOVCHILARGA INGLIZ  
TILINI O'QITISH (ESP) METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(FIZIKA VA INFORMATIKA YO'NALISHLARI MISOLIDA)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Giyasova Umida Erkinovna**

Malaka oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tilini o‘qitish (ESP) metodikasini takomillashtirish (fizika va informatika yo‘nalishlari misolida)..... 3

**Гиясова Умида Эркиновна**

Совершенствование методики преподавания английского языка (ESP) слушателям курсов повышения квалификации (на примере направлений физика и информатика) ..... 23

**Giyasova Umida Erkinovna**

Improving methodology of teaching English (ESP) to trainees at the professional development courses (on the example of specialties in physics and computer science) ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 50

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil 163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**GIYASOVA UMIDA ERKINOVNA**

**MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA TINGLOVCHILARGA INGLIZ  
TILINI O'QITISH (ESP) METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(FIZIKA VA INFORMATIKA YO'NALISHLARI MISOLIDA)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped754 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namsifl.uz](http://www.namsifl.uz)) va “ZiyoNet” ta’lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirsoliyeva Muxabbat To‘xtasinovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirova Munira Rasulovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Djumabayeva Djamila Sharipovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil 163.01raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160700, Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, “Yangiobod” MFY, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: (99869) 442-11-67; e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz) / [namdchti@edu.uz](mailto:namdchti@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160700, Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, “Yangiobod” MFY, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: (99869) 442-11-67; e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz) / [namdchti@edu.uz](mailto:namdchti@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_da tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.T.Dosbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

**I.I.Umrzoqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d. (Phd), dotsent

**S.A.Misirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.n., dotsent

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida raqamli texnologiyalar vositasida barqaror va sifatli ta'lim tizimini yaratish muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. YUNESKONing "Education in a post COVID-19 world: Nine ideas for action"<sup>1</sup> Konsepsiyasida (2020) ta'limning barcha bo'g'inlarida maslahat va kommunikatsiya mexanizmlarini mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim sifatini oshirish maqsadi ko'zlanmoqda. Natijada Blended learning texnologiyalarini keng joriy etish, mavjud o'qitish tizimlarini dekonstruksiyalash, tashkiliy-innovatsion boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni, onlayn platformalarni rivojlantirish asosida ehtiyojlarga yo'naltirilgan kasbiy rivojlanish dasturlarini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya va Blended learning texnologiyalardan foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda ta'limda o'zaro hamkorlikka asoslangan Internet texnologiyalarini rivojlantirish, ta'lim oluvchilar, pedagoglarda Blended learning bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning individual ta'limiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan kontentlarni yaratish orqali ta'lim mazmunini differensiyalashtirish, onlayn ta'lim muhitida ijtimoiy-emotsional barqarorlik hamda psixofiziologik salomatlikni saqlash texnologiyalarini kuchaytirish, axborotlar oqimini qayta ishlash va amalda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga malaka oshirish jarayonlarida pedagoglarning chet tillarini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanishi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda ehtiyojlarga yo'naltirilgan o'qitish metodikalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning kasbiy-innovatsion tayyorgarligini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat natijalarini inobatga oladigan tabaqalashtirilgan va muqobil uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotda keng qo'llanilishiga e'tibor berilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl, metod, vosita va texnologiyalari (jumladan, masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio kabi axborot tizimlari) joriy etildi. Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonlarini raqamlashtirish, ehtiyojlarga yo'naltirilgan individual o'qitish trayektoriyalarini belgilash, pedagogik dizayn tamoyillari asosida uning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, mazkur jarayonga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan Blended learning texnologiyalarini joriy etish asosida mustaqil, uzluksiz kasbiy rivojlanish platformalarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, "oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarida

---

<sup>1</sup> Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. International Commission on the Futures of Education. UNESCO, 2020. – 24 p.

ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyati samaradorligini muttasil oshirib borish imkoniyatlarini yaratish"<sup>2</sup> asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida, malaka oshirish kurslarining raqamli texnologiyalar va pedagogik dizayn integratsiyasiga asoslangan innovatsion ta'lim platformasini yaratishga bo'lgan zaruratni asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublika olimlari U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev, F.M.Zakirova, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, Z.R.Abdujabbarova, M.A.Yuldashev, Ya.U.Ismadiyarov, M.T.Mirsoliyeva, T.T.Shoymardonov, A.Ye.Ibraymov, A.D.Asqarov, L.G.Babbaxodjayeva, A.S.Djurayev, I.A.Eshmamatov, M.A.Innazarov va boshqalarning ilmiy ishlarida uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, OTM rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini texnologiyalashtirish asosida takomillashtirish, malaka oshirish kurslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, masofaviy, Blended learning, uzluksiz malaka oshirish mexanizmini yaratish, chet til o'qitish metodikasi hamda ta'lim jarayonida pedagogik tashxislashni amalga oshirish masalalari o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida A.Derkach, V.B.Gargay, I.A.Zimnyaya, Ye.S.Polat, Yu.G.Tatur, E.F.Zeyer, N.V.Kuzmina, Ye.I.Kudryavtseva, A.Markova, V.A.Kuklev, V.A.Slasteninlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish va kasbiy kompetentlikni shakllantirish, masofaviy

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2019 й.. 06/19/5789/3659-сoн.

ta'lim, Blended learning, malaka oshirish jarayonining ilmiy-nazariy muammolari, chet til o'qitish metodikasi, malaka oshirish tizimiga AKTni joriy etishga doir muammolar tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlardan Adnan Hakim, Raven John, Michael D.Toth, Karlheinz Ingenkamp, Robert Marzano, Brian Tomlinson, M.A.Amani, J. Bergmann kabilarning ilmiy izlanishlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi, pedagogik-psixologik jihatlari, andragogik tamoyillari va texnologiyalari, ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish akmeologik strategiyalari, pedagogning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi, masofaviy ta'lim, Blended learning texnologiyalari vositasida chet til o'qitish metodikasini takomillashtirish, malaka oshirish muammolari masalalarini tadqiqot yo'nalishi etib belgilagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Belarus Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi hamkorlik doirasida Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining xalqaro ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining MB-OT-2019-23 - qayd raqamli «Zamonaviy AKTdan foydalangan holda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minlash» loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida Blended learning texnologiyalari vositasida fizika, informatika yo'nalishi tinglovchilariga sohaga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga qo'yilayotgan talablarni ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish;

malaka oshirish kurslarida fizika, informatika yo'nalishi tinglovchilariga maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini (ESP) o'qitish mazmuni, tashkiliy-pedagogik sharoitlarini tahlil qilish;

Blended learning texnologiyalari vositasida fizika, informatika yo'nalishi tinglovchilariga ingliz tilini o'qitish (ESP) metodikasini takomillashtirish;

malaka oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tili (ESP) o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida fizika, informatika yo'nalishi tinglovchilariga Blended learning texnologiyalariga asoslangan sohaga yo'naltirilgan ingliz tili (ESP) o'qitish jarayoni belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida Blended learning texnologiyalariga asoslangan sohaga yo'naltirilgan ingliz tilini (ESP) o'qitishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda pedagogika, psixologiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasiga oid adabiyotlarni, Internet manbalarni, axborot va ta'lim manbalarni o'rganish, nazariy tahlil, anketa, test, suhbat,

pedagogik kuzatish, intervyu, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

malaka oshirish jarayonining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ehtiyojlarga yo'naltirilgan lingvodidaktik maqsadlarni individual ta'lim trayektoriyasi bilan didaktik moslashuvchanligini kontsentrlash asosida takomillashtirilgan;

pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tilini o'qitish mazmuni maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan til ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmaviy, mazmunli, amaliy-texnologik, kvalimetrik-korreksion komponentlarini lingvistik ta'limning "yangi arxitekturasi"ning produktivligi empirik darajasini qat'iy belgilash orqali aniqlashtirilgan;

malaka oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tili o'qitish metodikasi intensiv-metodik xarakterdagi mustaqil ta'lim kontentlarini andragogik imkoniyatlariga muvofiq integrativ-intensiv loyihalash orqali takomillashtirilgan;

malaka oshirish jarayonlarida tinglovchilarning ingliz tili bo'yicha kompetentlik darajasini baholash texnologiyalari sohaga yo'nalgan til ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik, dinamik-korreksion bosqichlari indikatorlarini kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarga diskursiv aloqadorligi, barqarorligi va dinamikligining amaliy yo'nalganligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat ta'lim talablari doirasida malaka oshirish kurslarida ingliz tili (ESP) o'qitish mazmuni belgilangan;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari "Amaliy xorijiy til" modulining ta'lim dasturi va Blended learning texnologiyalariga asoslangan o'quv-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

nofilologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun 72 soatga mo'ljallangan "Amaliy xorijiy til" intensiv-interaktiv ommaviy ochiq onlayn kursi (OOOK) yaratilgan;

malaka oshirish kurslarida tinglovchilarning ingliz tili bo'yicha kompetentlik darajasini baholashning interaktiv va muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning metodologik hamda metodik asosga egaligi; ko'p bosqichliligi; bosqichlar (asoslovchi va ta'limiy tajriba) o'rtasidagi farqlar asosida tavsiya etilgan metodika samaradorligining aniqlanganligi; tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilishning reprezentativligi; olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi; olingan empirik qiymatlarning ishonchli matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinganligi; olingan natijalar asosli ekanligining vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati malaka oshirish tizimida ta'lim sifatini oshirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, Blended learning texnologiyalariga asoslangan o'qitish strategiyalarining pedagogik-psixologik, andragogik asoslari hamda malaka oshirish kurslarida ingliz tili (ESP) o'qitishning kognitiv, lingvodidaktik, amaliy-faoliyatli komponentlari mazmunining ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanganligi,

Blended learning texnologiyalari vositasida malaka oshirish kurslarida ingliz tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va modelining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida ingliz tili o‘qitish metodikasini fan (fizika va informatika) va til integratsiyasiga asoslangan ta’lim usullari asosida takomillashtirilganligi, shuningdek Blended learning texnologiyalariga asoslangan interaktiv axborot-metodik ta’minotning ishlab chiqilganligi, “Amaliy xorijiy til” modulining axborot-metodik ta’minoti ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi asosidagi ommaviy ochiq onlayn kurslarni ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Malaka oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tili o‘qitish (ESP) metodikasini takomillashtirish (fizika va informatika yo‘nalishlari misolida) bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

malaka oshirish jarayonining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ehtiyojlarga yo‘naltirilgan lingvodidaktik maqsadlarni individual ta’lim trayektoriyasi bilan didaktik moslashuvchanligini kontsentrlash asosida takomillashtirish bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 02/14-820-son ma’lumotnomasi). Natijada uzluksiz malaka oshirish tizimida ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tilini o‘qitish mazmuni maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan til ko‘nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmaviy, mazmunli, amaliy-texnologik, kvalimetrik-korreksion komponentlarini lingvistik ta’limning “yangi arxitekturasi”ning produktivligi empiriklik darajasini qat’iy belgilashga oid takliflardan Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo‘yiladigan Davlat ta’lim talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 02/14-820-son ma’lumotnomasi). Natijada malaka oshirish kurslari “Amaliy xorijiy til” modulining ESP (English for Specific Purposes) asosidagi mazmuni va metodik ta’minoti ishlab chiqilgan;

malaka oshirish kurslarida tinglovchilarga ingliz tili o‘qitish metodikasi intensiv-metodik xarakterdagi mustaqil ta’lim kontentlarini andragogik imkoniyatlariga muvofiq integrativ-intensiv loyihalash orqali takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy ishlanmalar MB-OT-2019-23 - qayd raqamli «Zamonaviy AKTdan foydalangan holda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-uslubiy ta’minlash» loyihasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 02/14-820-son

ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish kurslarining axborot-metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

malaka oshirish jarayonlarida tinglovchilarning ingliz tili bo'yicha kompetentlik darajasini baholash texnologiyalari sohaga yo'nalgan til ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik, dinamik-korreksion bosqichlari indikatorlarini kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarga diskursiv aloqadorligi, barqarorligi va dinamikligining amaliy yo'nalganligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflardan Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat ta'lim talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 02/14-820-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini chet tillari bo'yicha kompetentligini baholash mazmuni va indikatorlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta respublika, 8 ta xalqaro ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta ilmiy, jumladan, 4 tasi Respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 121 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari belgilangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ta'riflangan, tadqiqot natijalarining joriy qilingani, sinalgani, e'lon qilingani, dissertatsiyaning hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Malaka oshirish tizimida o'qitish sifatini oshirish metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida pedagog kadrlarni malakasini oshirish mazmunini takomillashtirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kurslarida ingliz tili (ESP)ni o'qitish metodikasining mavjud holati tahlili tahlil qilingan.

Zamonaviy malaka oshirish tizimi – bu aniq ta'lim muassasalari talablariga mos keladigan va ta'lim beruvchilarning mavjud kasbiy va pedagogik malakasini hisobga oladigan moslashuvchan, dinamik tizim hisoblanadi.

Mazkur jarayonlar, ya'ni pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlari umumiy-ilmiy tamoyillari va quyidagi o'ziga xos tamoyillar tizimi asosida amalga oshirilishi kerak: ta'lim dasturlari mazmunini o'zgartirish va to'ldirish imkoniyatini nazarda tutuvchi harakatchanlik tamoyili; ta'lim oluvchilar tomonidan ham, ta'lim beruvchilar tomonidan ham yaqin, o'rta

va uzoqdan o'qitish istiqbollari tizimini chuqur tushunish va xabardor bo'lishni talab qiladigan ongli istiqbol tamoyili; ta'lim oluvchilarning yuqori qiziqishini va ta'lim beruvchining malakasini nazarda tutilgan uslubiy maslahatning ko'p qirrali bo'lish tamoyili; subyekt-subyekt o'zaro ta'siriga asoslangan paritet tamoyili.

Zamonaviy ta'lim sharoitida ta'lim beruvchining barqaror malakasi, kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida rivojlanadigan universitetning innovatsion o'quv faoliyati mazmunida kasbiy faoliyatga tayyorlik zarur jihatlardan biri sanaladi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlik – bu asosiy kasbiy va pedagogik kompetensiyalar tizimi belgilaydigan ta'lim beruvchining kasbiy va pedagogik faoliyatining innovatsion komponentining shakllanish darajasini kompleks aks ettirishidir.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari innovatsion tayyorgarligini belgilovchi muhim mezonlardan biri – bu ularning kasbiy kompetentligi va kreativligi sanaladi. Shu nuqtai-nazardan, pedagoglarning kasbiy majburiyatlaridan biri doimiy o'z ustida ishlash, kasbiy malakasini rivojlantirish asosida uning salohiyati, pedagogik faoliyat samaradorligi shunchalik ortadi.

Rivojlangan davlatlarda pedagoglar malakasini oshirish tizimini tahlil qilish ularda malaka oshirish jarayonlarini tabaqalashtirilgan asosda tashkil etishning turli modellari mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, tajribasiz, yosh o'qituvchilar uchun masofaviy yoki sirtqi ta'lim shaklidagi boshlang'ich o'qitish, tajribali, ammo malaka darajasiga ega bo'lmagan pedagog-o'qituvchilar uchun boshlang'ich ta'lim (ko'p yillar ta'lim muassasasida ishlagan, ammo aniq malaka yo'nalishi va darajasiga ega bo'lmaganlar), qo'shimcha pedagogik ta'lim (ikkinchi kasbiy malaka darajasini olish istagida bo'lgan o'qituvchilar), rejalashtirilgan malaka oshirish kurslari kabi shakllardir.

Ilmiy-pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'limda axborot-kommunikatsiyalarini keng qo'llash davr talablaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonining “yangi arxitekturasi” ishlab chiqishni talab qiladi. O'qitishning axborot texnologiyalarini qo'llash o'qitish jarayonini butunlay o'zgartirib yuborishga, shaxsga mo'ljallangan o'qitish modelini amalga oshirishga, mashg'ulotni jadallashtirishga va muhimi, ta'lim oluvchilarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishini yanada takomillashtirishga imkon yaratadi. Tadqiqotlarimiz jarayonida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari o'rtasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomadan ko'zlangan asosiy maqsad – malaka oshirishni rejalashtirish, amalga oshirish va nartijadorligini ta'minlash uchun ta'sir etuvchi omillarni, sabablarni tahlil qilishdan iborat bo'ldi. O'rganishlar davomida: 34% erkaklar, 42% ayollar malaka oshirish kurslari ta'lim mazmuni har doim ham ularning ehtiyojlariga to'g'ri kelmasligini; 33% ayollar, 13% erkaklar oilaviy holatidan kelib chiqqan holda, har doim ham ishdan ajragan holda malaka oshirish kurslariga borish qulay emasligini; 26% ayollar, 18% erkaklar ishdan ajragan holda malaka borishdagi eng katta muammo bu o'z darslarini o'tib turishga nomzod topshi kabi sabablarni ko'rsatishdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish nafaqat tashkiliy masalalar, shart-sharoit, balkim ichki resurslar, malaka oshirish kurslarida dars beradigan pedagog-andragoglarning kasbiy mahorati, ta'lim sub'ektlarining hamkorlikdagi faoliyatini

talab etuvchi ijodiy-refleksiv ta'lim muhitni yaratilganligi, malaka oshirishning muqobil shakllarini amaliyotga keng joriy etish, xususan, masofaviy malaka oshirish, hamda ta'lim mazmunidagi tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishini talab etadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda, biz oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish, ta'lim jarayonining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayoniga muqobil malaka oshirish shakllarini kiritish, malaka oshirish ta'lim dasturlari mazmunini tabaqalashtirilgan darajasini joriy etish malaka oshirish jarayonlari samaradorligiga xizmat qiladi degan xulosaga keldik.

Bizning fikrimizcha, pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonlarida o'qitish sifatini oshirish metodikasini takomillashtirishga ta'sir etuvchi komponentlar quyidagilardan iborat:

tashkiliy-tuzilmaviy komponent: malaka oshirish jarayonlarining institutsinal tuzilmasi, normativ-me'yoriy asosi, tuzilmaviy shakli hamda boshqaruv kooperatsiyasini qamrab oladi;

mazmunli komponent: malaka oshirish jarayonlarida tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati ta'lim dasturlari, o'quv reja va dasturlar mazmuni bilan baholanadi;

amaliy-texnologik komponent: oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini malakasini oshirish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalanish, sohaga yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy-axborot ta'minotida aks etadi;

kvalimetrik-korreksion komponent: pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish darajasining real ko'rsatkichlarini tashxislash, korreksiyalash hamda monitoringini olib borish chora-tadbirlarni belgilashga ham imkon beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Malaka oshirish kurslarida Blended learning texnologiyalari vositasida fizika, informatika yo'nalishi tinglovchilariga sohaga yo'naltirilgan ingliz tili o'qitish metodikasi”** deb nomlangan, unda Blended learning texnologiyalari asosida malaka oshirish tizimida ta'lim sifatini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, malaka oshirish jarayonida ta'lim sifatini oshirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari hamda malaka oshirish kurslarida “Amaliy xorijiy til” modulini Blended learning texnologiyalari asosida o'qitishni loyihalashtirish bosqichlari yoritilgan.

Blended learning tushunchasi masofaviy va an'anaviy ta'lim uyg'unligiga asoslangan o'qitish modeli sifatida tushuniladi. Blended learning – zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, ta'lim beruvchi ishtirokidagi ta'lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta'lim (e-Learning) olish bilan birlashtiradi va ta'lim oluvchi tomonidan o'quv jarayonining tezligi, joyi, vaqti mustaqil nazorat qilinishini hamda ta'lim beruvchi bilan birga va onlayn o'qish tajribasi integratsiyasini faraz qiladi.

Blended learning malaka oshirish jarayonlariga tatbiq etishda e'tibor qaratiladigan yana muhim bir jihat kognitiv yondashuv nazariyasidir. Ma'lumki, ta'limni kognitiv tahlilida asosiy e'tibor ta'lim oluvchining aqliy (kognitiv) strukturasi shakllantirishni o'rganishga qaratiladi, bu individual bilimlarni, shu jumladan ilgari olingan bilimlarni ham, yangilarini olish strategiyasini ham tashkil etadi.

Kognitiv ta'lim tarafdorlari (Dj. Miller, A. Nyuell, G. Saymon va boshqalar) o'z tadqiqotlarida ko'pincha axborotni qayta ishlash metaforasiga murojaat qilishdi. Kognitiv tahlilda ustun bo'lgan axborotni qayta ishlash modeli olimlar tomonidan quyidagicha taqdim etilgan:

1-komponent – bilimlar bazasi (ombor) – inson taraqqiyoti jarayonida shakllangan ma'lumotlar, uyushmalar va tushunchalar;

2-komponent – kognitiv strategiyalar – qayta ishlash jarayonlari, axborot, buning natijasida keyinchalik foydalanish uchun bilimga (kognitiv tuzilishiga) aylantiriladi;

3-komponent – axborotni bilish va qayta ishlash sub'ekti sifatida o'zini anglash.

Shunday qilib, o'qitishda kognitiv yondashuv ta'lim oluvchilar o'zlarini tanqidiy va ijodiy fikrlash jarayonida foydalanish va rivojlantirish mumkin bo'lgan ba'zi strategiyalar yordamida ma'lumotni maqsadli ravishda qayta ishlaydigan bilim sub'ektlari sifatida tan olishlari kerakligini nazarda tutadi.

G'arbiy Yevropada, 70-yillarning oxiri – XX-asrning 80-yillari boshlaridan boshlab shakllana boshlagan konstruktivizm nazariyasi va uning tamoyillari Blended learning texnologiyalarning asosiy tamoyillariga to'liq mos keladi.

Konstruktivizmning asosiy pozitsiyasi: "bilimlarni ta'lim beruvchilarga tayyor shaklida berish mumkin emas, siz faqat ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyatli qurish va bilimlarini o'sishi uchun pedagogik sharoit yaratishingiz mumkin". Ushbu qoida Blended learning texnologiyalarning quyidagi tamoyillarida o'z aksini topgan: ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorligi; xulosalarni shakllantirishda ta'lim oluvchilarning ishtiroki; turli xil muqobil variantlar bilan tanishish; har kimga taxminlar, ilmiy farazlar va taxminlarni ifodalashni rag'batlantirib, o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini berish; mustaqil tadqiqot (loyiha usuli), masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ishlash; ta'lim oluvchilarga muammolarni hal qilishda va faoliyatida yordam beradigan turli xil integral, haqiqiy va imitatsion tajribalarni shakllantiradigan o'quv vaziyatlarini yaratish.

Tadqiqot muammosi doirasidan kelib chiqqanda, Blended learning modeliga asoslangan o'qitish jarayoni samaradorligini baholashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

o'quv moduli tuzilmasida kunduzgi va masofadan o'qitish tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi qanday uslubiy asosga egaligi;

AKT qanchalik samarali tanlanganligi va ishlatilganligi;

tarmoqqa joylashtirilgan o'quv materiallari bilan ishlash qulayligi;

malaka oshirish kurslariga ajratilgan vaqtning samarali foydalanilganligi yoki sarflanganligi;

ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar o'rtasida onlayn muloqotga bo'lgan ehtiyojning qondirilganligi yoki aksincha ekanligi o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi muhim ko'rsatkichlar sifatida baholanadi.

Ilmiy dalillarning nazariy tahlili, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish malaka oshirish tizimida Blended learning texnologiyalaridan foydalanishning muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalish va sharoitlarini aniqlash imkonini berdi. Bular quyidagilardan iboratdir:

malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan malaka talablari mazmunini oliy ta'lim muassasalari hamda jamiyat ehtiyojlari bilan o'zaro muvofiqligi;

pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ta'lim, ijtimoiy-madaniy muhit hamda andragogik omillarga bog'liqligi;

pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishining davriy ravishda baholab borish va korreksiyalash;


ta'lim mazmuni hamda o'qitish texnologiyalarini shaxsga yo'nalganlik, variativlik va adaptiv yondashuvlar asosida rivojlantirish.

Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonida Blended learning texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishda to'sqinlik qiluvchi quyidagi omillar aniqlashtirildi: tinglovchilarning o'qishga bo'lgan past motivasiyasi, ta'lim dasturlari mazmuni o'rtasidagi farqlarning mavjudligi, OOOK natijalarini ish beruvchilar tomonidan tan olishning amaliy mexanizmlarini yetarli emasligi, shu bilan birga malaka oshirish tizimida o'quv modullarining samarali o'zlashtirish imkonini beruvchi qisqa muddatli onlayn kurslarning yetishmasligi kabilardir. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, malaka oshirish jarayonida "Amaliy xorijiy til" modulini Blended learning texnologiyalariga asoslangan o'qitish modelini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratdik (1-rasmga qarang).

Modelda Blended learning texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayoni modelini va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan, Blended learning texnologiyalariga asoslangan multimodal o'quv-metodik materiallar, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish; xorijiy tillarini o'qitish jarayoniga Blended learning texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy, texnik, informatsion va metodik shart-sharoitlarini belgilash; Blended learning vositasida xorijiy tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda sohaga yo'naltirilgan til ko'nikmalarini rivojlanish darajalari bilan bog'liq komponentlar o'zaro aloqadorlikda yoritib berildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kattalar ta'limida til o'qitishda ta'lim mazmunining sohaga yo'naltirilmaganligi, zaruriy metodik materiallarning tajribalarga asoslanmaganligi kognitiv sohadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqotlarimiz davomida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish kurslari tarkibidagi "Amaliy xorijiy til" moduli mazmuni va uning dasturiy ta'minotini tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga erishildi. Bunda ta'lim dasturlari mazmuni akademik va kasbiy til ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish tamoyili asosida takomillashtirildi.



**1-rasm. Malaka oshirish jarayonida Blended learning texnologiyalariga asoslangan ingliz tili (ESP) o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli**

Ilmiy-pedagogik tahlillar asosida, malaka oshirish jarayonlarida Blended learning texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim sifatini oshirishning quyidagi tamoyillari aniqlashtirildi:

1. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda ehtiyojlarga yo'nalganlik va ustuvorlik.

2. Blended learning texnologiyalariga asoslangan ta'lim jarayonlarida tinglovchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko'nikma va kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasi.

3. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan Blended learning modellarining (6 ta) ta'lim sharoiti va maqsadlariga muvofiqligi.

4. Blended learning modelidagi an'anaviy va elektron ta'lim komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

5. Kommunikativlik, moslashuvchanlik, natijadorlik va kreativlik komponentlarini mujassamlashtirgan interaktivlik tamoyili.

Xorijiy tilini Blended learning asosida o'qitish jarayoni umumiy didaktik, umumiy uslubiy va xususiy metodik tamoyillarga asoslanadi.

Ingliz tili kursini ishlab chiqish yoki modernizatsiya qilish didaktik tamoyillarga, psixologik va pedagogik jihatlariga, shuningdek Blended learning o'quv jarayoniga integratsiya qilish shartlariga muvofiq amalga oshirilishi va har qanday kursni loyihalashda xos bo'lgan bir nechta bosqichlarning ketma-ket o'tishini ta'minlashi kerak. Ingliz tili kursini Blended learning asosida o'qitishning 5 ta asosiy bosqichini aniqlash maqsadga muvofiqdir:

- 1) tahlil bosqichi;
- 2) rejalashtirish bosqichi;
- 3) ishlab chiqish bosqichi;
- 4) amalga oshirish bosqichi;
- 5) baholash bosqichi.

Tadqiqotlarimiz davomida malaka oshirish ta'limining ehtiyojlarga yo'nalganligi, uzluksizligi, mustaqil ta'lim olish salmog'ining ortib borayotganligi, hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining tizimli ravishda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish talabidan kelib chiqqan holda malaka oshirish kurslarida "Amaliy xorijiy til" moduli malaka talablar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (ESP)" moduli o'qitishning Blended learning texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta'lim kurslari yaratildi va zaruriy metodik materiallar bilan to'ldirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Blended learning texnologiyalari asosida ingliz tili o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini baholashga oid tajriba-sinov ishlari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda natijalar tahlili bilan bog'liq ma'lumotlar asoslanadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari malaka oshirish jarayonida Blended learning texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish "Amaliy xorijiy til" modulini o'qitishni loyihalashtirish misolida tashkil etildi.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti hamda Farg'ona davlat universitetlari huzuridagi tarmoq

markazlari fizika, informatika yoʻnalishi tinglovchilari orasida amalga oshirilib, unda **469** nafar tinglovchilar (pedagog kadrlar) ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlar quyidagi bosqich va muddatlarda oʻtkazildi:

birinchi bosqich – 2015-2016 yillar: tadqiqot muammosining meʼyoriy-huquqiy asosi, adabiyotlarni tahlil qilish, tadqiqot muammosining mavjud holatini oʻrganish;

ikkinchi bosqich – 2017-2019 yillar: Blended learning texnologiyalarini joriy etish asosida malaka oshirish jarayonlarini loyihalashtirish, modellashtirish, zaruriy shart-sharoitlarni aniqlashtirish, “Amaliy xorijiy til” modulini oʻqitishning dasturiy-metodik taʼminotini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish;

uchinchi bosqich – 2020-2022 yillar: natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, samaradorlik darajasini aniqlash, tadqiqot yuzasidan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida Blended learning texnologiyalarini joriy etish asosida malaka oshirish jarayonlarini loyihalashtirish, modellashtirish, zaruriy shart-sharoitlarni aniqlashtirish, “Amaliy xorijiy til” modulini oʻqitishning dasturiy-metodik taʼminotini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish boʻyicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

– Blended learning texnologiyalarini joriy etish asosida malaka oshirish jarayonlarini loyihalashtirish (oʻquv axborotlarining kompyuter vizualizatsiyasini, axborot va dasturiy taʼminotini yaratish (Prezi, Powtoon, Wizer, Adobe Presenter), oʻqitishni boshqarish tizimlarini joriy etish (MOODLE), mediamahsulotlar portalini yaratish (<http://mk.bimm.uz>), tinglovchilarning individual va guruhi ishlarini tashkil etish (veb-forumlar, audio-forum, onlayn konsultatsiya va boshq) mexanizmlari takomillashtirildi;

– “Amaliy xorijiy til” modulini oʻqitishning dasturiy-metodik taʼminoti Blended learning texnologiyalari asosida takomillashtirildi. Bunda kurs dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishida tinglovchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalarini aniqlash uchun mezon va koʻrsatkichlari tizimi ishlab chiqildi hamda mazkur mezonlar asosida baholandi (1-jadvalga qarang).

## 1-jadval

### OTM pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari

Mezonlar	Koʻrsatkichlar
<b>Amaliy xorijiy til modulini oʻzlashtirish</b>	kasbiy tayyorgarlik (bilim, koʻnikma va malakalar), fizika, informatikaga oid xorijiy til kompetensiyalarining rivojlanganligi, Blended learning texnologiyalari asosida xorijiy tillarni oʻqitish jarayonini samarali tashkil etish boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlanganligi
<b>Kasbiy-pedagogik</b>	pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, faoliyatini rejalashtirish, pedagogik mahorat, kommunikativlik, oʻquv-

<b>Mezonlar</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>
<b>rivojlanish</b>	tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, metodik kompetensiyalarga egalik, mustaqillik, kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish, AKT kompetentlik
